

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



UMUMIY YER BILIMI
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi: 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

Chirchiq – 2023

Fan/modul kodi UYEBM111	O'quv yili 2023-2024	Semestr 1-2	ECTS - Kreditlar 7-4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6-4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Umumiy yer bilimi	150		180	330

2. I. Fanning mazmuni.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga geografik qobiqda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar, geografik qobiqni yaxlit tizim sifatida bo'ylama va ko'ndalang tuzilishi, geografik qobiqdagi harakatlar, ularning kelib chiqish sabablari va rivojlanish qonuniyatlari, jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri, geografik bashorat haqida bilim berish iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga koinot va geografik qobiqning turkibiy qismlari, ya'ni litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferaning asosiy xususiyatlarini, ularning rivojlanish qonuniyatlari hamda oqibatlarini o'rganishdan iborat.

II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: Geografiya fanlari tizimi

Fan, fanlar tizimi. Fanning maqsad va vazifalari. Tabiiy fanlarning vazifalari. Geografiya fanlari tizimi. Tabiiy geografik fanlar tizimi. Iqtisodiy geografik fanlar tizimi. Maxsus geografik fanlar tizimi. Geodeziya va kartografiya. Umumiy tabiiy geografik fanlar (Umumiy yer bilimi, umumiy geomorfologiya, umumiy gidrologiya, tabiiy geografik rayonlashtirish, landshaftshunoslik).

2-mavzu: Umumiy yer bilimining rivojlanish tarixi

Ibtidoiy davrda geografiya fanining rivojlanishi. O'rta asrlarda geografiya fanining rivojlanishi. Sharq geografiyasi. Buyuk geografik kashfiyotlar. XVIII-XIX asrlarda geografik tadqiqotlarning rivojlanishi. XX asrda geografik tadqiqotlar rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. FTI va geografik tadqiqotlar.

3-mavzu: Umumiy Yer bilimining maqsad va vazifalari. Tadqiqot usullari.

Umumiy Yer bilimining manbalari. Umumiy Yer bilimining maqsadi va vazifalari, tabiatdan foydalanishning optimallashtirishni geografik asoslarini sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy miqyoslarda ishlab chiqishga doir bilimlar berish. Nazariy tadqiqot usullari. Dala-yekspressitsiya tadqiqot usullari. Laboratoriya va eksperimental usullar. Modellashtirish. Kartografik, matematik-statistik, tarixiy va qiyoslash hamda o'xshatish usullari.

4-mavzu: Koinot haqida tushuncha. Quyosh tizimi

Olam – cheksiz-chegarasiz dunyo. Metagalaktika, galaktikalar guruh, galaktika, yulduzlar, Quyosh. Sayyoralar, asteroidlar, meteor va meteoritlar. Bizning galaktika. Galaktika yili. Quyosh tizimining galaktikamizdagi o'rni. Quyosh tizimining tuzilishi.

5-mavzu: Quyosh. Sayyoralar. Oy

Quyosh tizimining galaktikamizdagi o'rni. Quyosh tizimining tuzilishi. Quyosh. Yer toifasidagi sayyoralarining kattaligi, harakati, atmosferasi va o'ziga xos xususiyatlari. Tashqi yoki ulkan sayyoralarining kattaligi, fizik massalari, harakati, atmosferasi. Asteroidlar yoki kichik sayyoralar. Yo'ldoshlar. Oy.

6-mavzu: Yer sayyorasi. Yerning harakati va uning geografik oqibatlari

Yerning shakli va o'lchamlari. Ekvatorial va qutbiy radiusi. Qutbiy siqilish. Yerning kimyoviy tarkibi. Yerning quyosh tizimidagi o'rni. Fazoning Yerga ta'siri. Yerning ichki tuzilishi. Yerning Quyosh atrofida aylanishi, tezligi va geografik oqibatlari. Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va uning geografik oqibatlari.

7-mavzu: Magnitosfera

Magnitosfera haqida tushuncha. Quyosh shamoli. Magnitopauza, radiatsion, mintaqalar. Geomagnit qutblar. Magnit ekvatori. Magnit enkayishi. Magnit meridiani. Magnit qutblarini harakati va ularning sabablari.

8-mavzu: Geografik qobiq va uning chegaralari

Geografik qobiq haqida tushuncha. Landshaft qobig'i va epigeosfera tushunchalari. Geografik muhit tushunchasi. Geografik qobiqning chegaralari. Geografik qobiqning yuqori va pastki chegaralari to'g'risidagi farazlar. Yer yuzasi geografik qobiqning yadrosi ekanligi.

9-mavzu: Geografik qobiqning asosiy xususiyatlari

Geografik qobiqning asosiy xususiyatlari. Geografik qobiq moddiy tarkibi va tuzilishining o'ziga xosligi va xilma-xilligi. Geografik qobiqdagi moddalar va ularning tuzilishi. Moddalarning kimyoviy tarkibi. Moddalarning fizik xossalari. Geografik qobiqning geotarkibli tuzilishi. Geografik qobiqning geosferali tuzilishi. Geografik qobiqning geotizimli tuzilishi.

10-mavzu: Yerning ichki va tashqi qobiqlari

Yerning ichki tuzilishi. Seysmik to'lqinlar. Yerning yadrosi. Mantiya. Yer po'stining hosil bo'lishi. Yerning ichki qismidagi moddalar elastikligi. Materik va okeanlarning hosil bo'lishi. Yerning ichki va tashqi qobiqlari ta'siri. Yer po'sti. Gidrosfera. Atmosfera. Biosfera.

11-mavzu: Litosfera. Yer po'stining tuzilishi

Litosfera tushunchasi va uning o'lehamlari. Yer po'sti va uning turlari: materik, okean va oraliq yer po'stlari. Yer po'stining tuzilishi: kimyoviy elementlar, mineralar, tog' jinslari. Magmatik, cho'kindi va metoforik tog' jinslari. Ularning hosil bo'lish sharoitlari va tarqalish qonuniyatlar.

12-mavzu: Geoxronologik jadval. Asosiy tog' hosil bo'lishi bosqichlari

Yerning yoshi va uni aniqlash usullari. Eonlar, eralar, davrlar. Platforma va geosinklinalarning hosil bo'lishi. Asosiy tog' hosil bo'lish bosqichlari: Baykal (Rifey), Kaledon, Gersen, Kimmeriy, Laramiy, Alp.

13-mavzu: Relyef. Relyef hosil qiluvchi omillar. Relyef shakllari.

Relyef haqida tushuncha. Relyef xosil qiluvchi ichki va tashqi omillar. Geotekturalar, morfostrukturalar. Turli kattalikdagi relyef shakllarining hosil bo'lishi. Gipsografik egri chiziq va uning tahlili natijasida aniqlanadigan qonuniyatlar.

14-mavzu: Tog'lar va tekisliklar, ularning turlari

Tog' haqida tushuncha. Tog'larning balandligiga ko'ra turlari. Tog'li o'lkalar, tog' massivlari, tog' zanjirlari, tog' tizmalari, yassi tog'lar, tog'liklar. Ularning joylanishi va tarqalishi. Tog'lar tugunlari va ularning tarqoqlanishi. Tekisliklar tushunchasi. Qatlamli, akkumulyativ, denudatsion tekisliklar. Tekislik relyefining zonalligi. Tekisliklarning shakliga ko'ra turlari.

15-mavzu: Gidrosferaning tuzilishi. Suvning aylanma harakati. Suvlik va quruqlikning o'zaro ta'siri

Gidrosfera haqida tushuncha. Suvning xususiyatlari. Gidrosferaning tarkibiy qismlari: okean suvlari va quruqlik suvlari. Okean va quruqlik o'rtasida namlik, issiqlik, mineral va organik moddalarning almashinuvi.

16-mavzu: Dunyo okeani. Okean suvlari xususiyati

Dunyo okeani haqida tushuncha. Dunyo okeanining asosiy xususiyatlari. Dunyo okeani qismlari. Dengizlar, qo'ltiqlar va bo'g'ozlar. Okean suvining fizik xususiyatlari: sho'rli, harorati, tiniqligi, gazlar, zichligi, bosim, suvning rangi. Okeandagi bo'ylama zonalar.

17-mavzu: Okean suvlari harakati. Okeanlarning o'simlik va hayvonot dunyosi

To'liqlar. To'liqlar elementlari. To'liqlar turlari. Okeanda organizmlarni tarqalishi va ularning vazifasiga ko'ra turlari Plankton. Zooplankton, fitoplankton. Nekton. Bental organizmlar. Biomassa. O'simliklar. Okeandagi biogeografik oblastlar. Okean organizmlarini muhofaza qilish.

18-mavzu: Quruqlik suvlari. Yer osti suvlari

Quruqlik suvlarining tarkibiy qismlari: yer osti suvlari va yer usti suvlari. Suv o'tkazadigan, suv o'tkazmaydigan, suvda erib ketadigan tog' jinslari, g'ovaklik, namlik. Suvli qatlam. Infiltratsiya. Aeratsiya zonasi suvlari, grunt suvlari, qatlamlararo suvlar, artezion suvlari, buloq.

19-mavzu: Yer usti suvlari. Daryolar

Yer usti suvlarini hosil bo'lishi. Daryolar. Daryoning manbai va mansabi. Daryo tizimi. Gidrografik to'r. Daryoning uzunligi. Daryo tizimining zichligi. Daryo havzasi. Suv ayirg'ich chizig'i. Daryo suvi ko'ndalang kesimi maydoni, suv sarfi, qiyaligi, suv oqimining tezligi, oqish koeffitsienti. Oqim hosil qiluvchi omillar. Daryoning to'yinishi, suv me'yori: to'lin suv, kam suvlik, toshqin. Oqim kuchi. Qattiq oqim. Daryo muzlashi. Daryolardan foydalanish, ularning ahamiyati.

20-mavzu: Ko'llar, botqoqlar, suv omborlari. Muzliklar. Yer usti suvlarini muhofaza qilish

Ko'llar haqida tushuncha. Ko'l botiqlarining paydo bo'lishi. Ko'l suvlari, suv me'yori, ko'llarning kimyoviy sharoiti, ko'llarning issiqlik me'yori, suvlarining harakati. Ko'ldagi xayot. Ko'llarning geografik turlari va ularni tarqalishi. Botqoqlar va ularning turlari. Suv omborlari va ularning vazifalari. Muzliklar Xionosfera, qor chegarasi. Materik va tog' muzliklari. Ularning to'yinishi, tuzilishi va harakati. Muzliklarning ishi. Yer usti suvlarini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari.

21-mavzu: Atmosferaning tuzilishi va tarkibi. Havo massalari

Atmosfera. Uning tarkibi va tuzilishi. Havo massalari. Ekvatorial, tropik, mo'tadil, Arktika va Antarktika havo massalari. Dengiz va quruqlik havo massalari. Atmosfera frontlari. Iliq va sovuq atmosfera frontlari.

22-mavzu: Quyosh radiatsiyasi

Quyosh radiatsiyasi va uning tarkibi. Quyosh doimiyligi. Quyosh issiqligining yer yuzasi va uni geografik kenglikka bog'liqligi. To'g'ri, sochilma va yalpi radiatsiya. Albedo, nurlanish, Yerning radiatsion va issiqlik muvozanati. Atmosferaning va Yer yuzasining issiqlik me'yori.

23-mavzu: Atmosferadagi suv

Bug'lanish va mumkin bog'langan bug'lanish. Havo namligi. Mutloq va nisbiy namlik. Kondensatsiya va sublimatsiya. Kondensatsiya balandligi. Tumanlar. Bulutlar. Yog'inlar va ularning turlari. Yer betida paydo bo'ladigan yog'inlar. Yog'inlarni yer yuzasida taqsimlanishi. Namlik koeffitsienti. Qurg'oqchilik indeksi.

24-mavzu: Atmosfera bosimi. Shamollar. Siklonlar va antitsiklonlar. Ob-havo va iqlim
 Atmosfera bosimi, uning taqsimlanishi. Izobaralar. Fasllar bo'yicha atmosfera bosimini o'zgarishi, sabablari. Shamollar. Atmosfera harakatlari. Frontlar. Siklonlar va antitsiklonlar. Ob-havo. Ob-havo turlari: sovuqsiz ob-xavo, 0 gradusdan o'tgandagi ob-havo, sovuq ob-havo. Ob-havo prognozi. Iqlim. Iqlim hosil qiluvchi omillar. Iqlimlarni sinflashtirish. Iqlimni o'zgarishi. Mikroiklim, inson faoliyatining iqlimga ta'siri.

25-mavzu: Biosfera. Biosfera haqida tushuncha. Organizmlar.
 Biosferaning mazmuni va mohiyati. Organizmlarni tarqalishi. Organizmlarni vazifasiga ko'ra turlari. Ekologik omillar. Organizmlar jamoasi haqida tushuncha. Ekotop, fitosenoz, zoosenoz, biogeotsenozlar. O'simlik va hayvonlarning tarqalish areallari. Tuproqlar va ularning tarqalishi.

26-mavzu: Geografik qobiqlarning ko'ndalang tabaqalanish omillari. Iqlim mintaqalari

Global, mintaqaviy, mahalliy omillar. Issiqlik mintaqalari: issiq mintaq, mo'tadil issiq mintaq, mo'tadil iliq mintaq, mo'tadil sovuq mintaq, sovuq mintaq. Iqlim mintaqalari. Iqlim mintaqalarining vujudga kelishi va ularning asosiy ko'rsatkichlari. Asosiy iqlim mintaqalari va oraliq iqlim mintaqalari: shimoliy va janubiy subekvatorial, shimoliy va janubiy subtropik, subarktika va subantarktika. Har bir iqlim mintaqasining tavsifi va o'ziga xos xususiyatlari.

27-mavzu: Tabiat zonalari. Landshaft tuzilmalari. Balandlik mintaqalari

Tabiat zonalarning vujudga kelishi. Zonalik qonuni. Iqlim mintaqalari doirasida tabiat zonalarni joylanishini umumsayyoraviy modeli. Zonalikning davriy qonuni. Landshaft, uning morfologik tuzilishi. Landshaftlarni sinflashtirish: tog' va tekislik landshaftlari; balandlik va botiqlik landshaftlari. Antropogen landshaftlar.

28-mavzu: Geografik qobiqlarning rivojlanish rivojlanishi
 Geografik qobiqlarning rivojlanish manbalari: tog' jinslarining yotishi, tarkibi, xossalari; tektonik harakatlar, vulqonlar, tabiiy geografik jarayonlar. Kriptozoyda geografik qobiqlarning rivojlanishi. Materik va okeanlarning kelib chiqishi haqidagi gipotezalar. Yerdan hayotning paydo bo'lishi. Odamning paydo bo'lishi. Hozirgi tabiiy geografik sharoitni vujudga kelishi.

29-mavzu: Insonning geografik jarayonlarga ta'siri. Atrof muhit monitoringi

Geografik qobiqlarning inson tomonidan o'zgartirilishi. Issiqlik oqimlari, atmosfera jarayonlari va gidrosferaga insonning ta'siri. Moddalarning texnogen oqimi va tabiiy komplekslarni o'z-o'zini tozalash qobiliyati. Atrof-muhit monitoringi. Monitoring darajalari.

30-mavzu: Geografik bashorat

Geografik bashorat va uning turlari. Geografik komplekslarning bashorat belgilari. Sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy bashoratlar. O'zbekiston tabiat komplekslarini bashoratlash.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. Tabiiy geografiya fanlari tizimi
2. Iqtisodiy geografiya va maxsus geografiya fanlari tizimi
3. XVII asrgacha geografiyaning rivojlanishi
4. Ilmiy geografiyaning rivojlanishi
5. Umumiy yer bilimining tadqiqot usullari
6. Qiyosiy tavsif usulining qo'llanilishi
7. Olamning tuzilishi
8. Quyosh tizimi
9. Sayyoralar va ularning xususiyatlari
10. Oy Yerning tabiiy yo'ldoshi
11. Yer sayyorasining asosiy xususiyatlari
12. Yer harakatining geografik oqibatlari
13. Magnitosferaning asosiy xususiyatlari
14. Magnit maydonining o'lchamlari
15. Geografik qobiqlar
16. Geografik qobiqlarning chegaralari
17. Geografik qobiqlarning asosiy xususiyatlari
18. Geografik qobiqlarning tarkibi va tuzilish darajalari
19. Yerning ichki tuzilishi
20. Yerning tashqi qobiqlari
21. Yer po'stining tuzilishi
22. Geosinklinallar va platformalar
23. Yer po'stining yoshi va geoxronologik sana
24. Asosiy tog' hosil bo'lish bosqichlari
25. Yer yuzasi relyefi va uni hosil qiluvchi omillar
26. Relyef shakllari
27. Tog'lar va ularning turlari
28. Tekislik relyef shakllari
29. Gidrosferaning tuzilishi
30. Suvning xususiyatlari
31. Dunyo okeani va okean suvining xususiyatlari
32. Okean suvlari harakati. Okeanlarning o'simlik va hayvonot dunyosi
33. Yer osti suvlari
34. Daryolar va ularning turlari.
35. Ko'llar, botqoqlar, suv omborlari. Muzliklar. Yer usti suvlarini muhofaza qilish
36. Atmosferaning tuzilishi va tarkibi

37. Quyosh radiatsiyasi va uning xususiyatlari
38. Atmosferadagi suv, havoning namligi
39. Atmosfera bosimi, shamollar, siklon va antitsiklonlar
40. Biosfera va uning xususiyatlari
41. Geografik qobiqlarning gorizontal tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar
42. Tabiat zonallari, landshaftlar, balandlik mintaqalari va ularning rivojlanish manbalari
43. Geografik qobiqlarning rivojlanish omillari
44. Geografik qobiqlarning inson tomonidan o'zgartirilishi
45. Geografik bashorat va uning ahamiyati

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. A.R.Beruniyning geografik merosi.
2. O'rta Osiyoga qilingan sayohatlar.
3. I.F.Kurzenshtern bilan Yu.M.Lisyanskiylarning dengiz sayohati.
4. XX asr geografiyasi.
5. Oy – Yerning tabiiy yo'ldoshi. Oy va Quyosh tutilishi.
6. Quyosh va sayyoralar kelib chiqishi haqidagi gipotezalar.
7. Sayyoralar va ularning xususiyatlari.
8. Geografik qobiqlarning tuzilish darajalari. Geografik qobiqlarning bo'ylama tuzilishi.
9. Morfoskulptura rel'ef shakllari.
10. Okean tubi rel'efi
11. Dunyo okeani boyliklarini muhofaza qilish.
12. Kriosfera.
13. Insonning iqlimga ta'siri.
14. Atmosferaning umumiy sirkulyatsiyasi va uning oqibatlari.
15. Biomassa va uning tarqalishi.
16. Nurash qobig'i.
17. Fanerozoйда geografik qobiqlarning rivojlanishi.
18. Biologik va biokimyoviy harakatlar.
19. Mintaqaviy va mahalliy geografik bashoratlar.
20. Geografik qobiqlarning bo'ylama tuzilishi.
21. Okeandagi bo'ylama zonalar.

22. Atmosferaning umumiy sirkulyatsiyasi
23. Tabiiy landshaftlarning o'zgarib borishi
24. XX asrda geografiya fanining rivojlanishi.
25. Yer – Oy umumiy og'irlik markazi atrofida aylanishi.
26. Quyosh va Yer aloqalari.
27. Geografik qobiqlarning tarkibi va tuzilish darajalari.
28. Geografik qobiqlarning yaxlitligi va bir butunligi.
29. Geografik qobiqlardagi tutash yuzalar.
30. Geografik qobiqlarning bo'ylama tuzilishi.
31. Yer po'stining yoshi.
32. Asosiy tog' hosil bo'lish bosqichlari
33. Okeandagi bo'ylama zonalar.
34. Geografik qobiqlarda odam va irq.
35. Balandlik mintaqalari.
36. Zonallikning davriy qonuni va uning umumsayyoraviy tuzilishi.
37. Geografik qobiqlardagi harakat manbalari.
38. Atmosferadagi harakatlar.
39. Geografik qobiqlarda suvning aylanma harakati
40. Biologik va biokimyoviy harakatlar
41. Litosferadagi aylanma harakatlar
42. Insonning geografik jarayonlarga ta'siri
43. Flyuvial relief shakllari
44. Iqlim mintaqalari va iqlim oblastlari
45. Landshaftlar morfologiyasi
46. Mintaqaviy va mahalliy geografik bashoratlar
47. Quruqlik suvlarini muhofaza qilish
48. Atmosferaning umumiy sirkulyatsiyasi
49. Suv omborlari va ularning ahamiyati
50. Suv eroziyasi vaakkumulyatsiyasi relyefi shakllari
51. Tog' relyefining vertikal mintaqalanishi
52. Yog'inlarning Yer yuzasida taqsimlanishi
53. Atmosferadagi issiqlik
54. Geosferalarning shakllanishi
55. Geografik qobiqlarning inson tomonidan o'zgartirilishi va uni boshqarish asoslari. Geografik bashorat.

3. V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- fanning mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari, geografiya fanlari tizimi, koinot to'g'risidagi asosiy tushunchalar, geografik qobiqlarning asosiy xususiyatlarining tuzilishi, undagi harakatlar, geografik qobiqlarning rivojlanish tarixi haqida *bilimga ega bo'lishi*;
- talaba geografik fanlar rivojlanishining asosiy bosqichlarini, koinotning yerga ta'sirini, geografik qobiqlarning asosiy xususiyatlarini, ko'ndalang va

bo'ylama tuzilishini, geografik qobiqdagi harakatlar sabablarini, geografik qobiqdagi asosiy qonuniyatlarni aniqlay olish <i>ko'nikmasiga ega bo'lishi</i>; - talabalar geografiya fanini tizimlarga bo'lish, ko'rinotning yerga ta'sirini va uning asosiy oqibatlarini, geografik qobiqni yuzlama va bo'ylama yo'nalishida tabaqalanish sabablarini, geosferalarning tuzilishini baholash <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talabalar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.
6.	VIII. Asosiy adabiyotlar: 1. Baratov P., Sultanova N. Umumiy yer bilimi. T.: "Info Capital Group", 2018. 416 b. 2. Vaxobov X., Abdunazarov O', Zaynutdinov A., Yusupov R. Umumiy yer bilimi. T.: "Sharq", 2005. 256 b. 3. Abdunazarov O', Q., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M. va boshq. Umumiy tabiiy geografiya. T.: "Barkamol fayz media", 2018. 328 b. IX. Qo'shimcha adabiyotlar : 1. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 й., 6-сон, 70-модда) 2. Геренчук К.И., Боков В.А., Черванов И.Г. Общее землеведение. М. Высшая школа. 1995, 256с. 3. Исломов И. Умумий ер билими. Маърузалар матни. 2001 й. 4. Strahler Alan H. Introducing physical geography. USA, Boston University. 2013. 5. Eitwein V., Maslin M. Physical geography: fundamentals of the physical environment. University of London. 2012.

X. Axborot manbalari:

1. <http://www.cspi.uz>
2. <http://www.lib.cspi.uz>
3. <http://www.uzgeo.uz>

4. www.pedagog.uz 5. www.ziyounet.uz 6. www.nature.uz 7. www.geografiya.uz	7. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil "29" avgust dagi qarori bilan tasdiqlangan 8. Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari: F.T.Rajabov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Geografiya" kafedrasi mudiri, g.f.f.d. O.U.Abdimurotov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Geografiya" kafedrasi o'qituvchisi 9. Taqrizchilar: A.Rasulov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi mudiri, g.f.f.d.(PhD) M.Mirakmalov – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Tabiiy geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.n.
--	--